

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDА
MARKAZIY OSIYO: BARQARORLIK VA TARAQQIYOT
ISTIQBOLLARI**
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
(Toshkent, 2025-yil 17-may)**

**CENTRAL ASIA IN MODERN INTERNATIONAL
RELATIONS: PROSPECTS FOR SUSTAINABILITY AND
DEVELOPMENT"**
**International scientific-practical conference on
(May 17, 2025)**

Toshkent – 2025

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo: barqarorlik va taraqqiyot istiqbollari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi miqiyosidagi xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari to‘plami. (Toshkent, 2025-yil 17-may). TDSHU, 2025. – 566 b.

Mas’ul muharir:

S.Bo‘ronov – siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati

Sh.Yovqochev – siyosiy fanlar doktori, professor

S.Jo‘rayev – siyosiy fanlar doktori, professor

N.Qosimova – siyosiy fanlar doktori, professor

Z.Zaripova – siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

K.Nikolayeva siyosiy – fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.Mamadjonov – Xalqaro munosabatlar kafedrasи o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

F.Karimov – O‘zbekiston xaqaro islom akademysi, Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti dekani, siyosiy fanlar doktori, professor

E.S.Sultonova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, siyosiy fanlar doktori

Toshkent davlat sharqshunoslak universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 3-maydagi 9-sonli qaror).

8. Самаркандский саммит – новый исторический этап в отношениях ЦА и ЕС, https://uz.a.uz/ru/posts/samarkandskiy-sammit-novyy-istoricheskiy-etap-v-otnosheniya-xa-i-es_705538
9. Лидеры Узбекистана и ЕС выступили за кардинальное расширение экономического сотрудничества, <https://president.uz/ru/lists/view/8015>
10. Шавкат Мирзиёев: «Перед нами стоит исторический шанс сделать регион устойчивым и процветающим», <https://www.gazeta.uz/ru/2025/04/01/president-interview/>
11. First EU-Central Asia Summit: Why Matters? <https://www.specialeurasia.com/2025/04/03/first-eu-central-asia-summit/>
12. Speech by President von der Leyen at the plenary session of the first EU-Central Asia Summit, https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/hu/speech_25_976
13. Шавкат Мирзиёев: «Перед нами стоит исторический шанс сделать регион устойчивым и процветающим», <https://www.gazeta.uz/ru/2025/04/01/president-interview/>
14. Европейский Союз и Центральная Азия: новое партнерство в действии, https://www.consilium.europa.eu/media/30829/ru-strategyasia_int.pdf

MARKAZIY OSIYO GEOSIYOSATI XANTINGTON VA VALLERSHTEYN NAZARIYALARI TALQINIDA

G‘oziyev Ravshan Rustamovich

*TDSHU “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsent v.b.
ravshangoziev18@gmail.com*

Xudoyqulova Marjona Turayevna

*TDSHU Siyosatshunoslik yo‘nalishi 4-kurs talabasi
xmarjonaturayevna@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola Markaziy Osiyoning geosiyosiy dinamikasini Samuel P. Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasi va Immanuel Vannershteynnning “Jahon tizimlari” nazariyasi asosida tahlil qiladi. Maqola Xantingtonning madaniy-sivilizatsion chegaralarga asoslangan yondashuvi bilan Vannershteynnning iqtisodiy yadro-periferik (core-periphery) dinamikasini Markaziy Osiyo kontekstida solishtirib, ularning kesishish nuqtalarini tanqidiy holda ko‘rib chiqadi. Ushbu ikki nazariyani qiyoslash orqali maqola zamonaviy Markaziy Osiyodagi siyosiy ittifoqlar, tashqi aralashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini qaysi nazariya samaraliroq tushuntirishini aniqlashga urinadi. So‘nggi geosiyosiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, Xitoy, Rossiya va AQSh kabi global aktorlarning mintaqadagi ta’sirining kuchayishi hamda Markaziy Osiyo davlatlarining ushbu tashqi bosimlarga munosabatini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Geosiyosat, Markaziy Osiyo, Samuel Xantington, Immanuel Vannershteyn, Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, Jahon tizimlari nazariyasi

CENTRAL ASIAN GEOPOLITICS IN THE INTERPRETATION OF HANTINGTON AND WALLERSTEIN THEORIES

Abstract: This article analyzes the geopolitical processes in Central Asia through the prism of Samuel P. Huntington's "Clash of Civilizations" and Immanuel Wallerstein's "World-Systems" paradigms. The article compares Huntington's cultural-civilizational boundary-based theory with Wallerstein's core-periphery economic relations in the context of Central Asia, critically examining where these theories intersect. By comparing these two theories, the article tries to determine which theory explains contemporary political alignments, foreign interventions, and socio-economic trends in Central Asia more accurately. Considering recent geopolitical changes, the article also examines the increasing role of global players like China, Russia, and the United States in the region, as well as Central Asian states' reactions to these outside pressures.

Keywords: Geopolitics, Central Asia, Samuel Huntington, Immanuel Wallerstein, Clash of Civilizations, World-Systems Theory.

KIRISH:

Markaziy Osiyo (keyingi o'rnlarda MO) global geosiyosiy manzarada strategik ahamiyatga ega bo'lib, tarix davomida sivilizatsiyalar, imperiyalar va geostrategik manfaatlarning chorrahasida joylashgan. Sovuq urushdan keyingi davrda mintaqa o'zining boy tabiiy resurslari, muhim geostrategik joylashuvi bilan Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi kabi yirik va mintaqaviy kuchlarning raqobatli manfaatlarining kesishgan nuqtasi sifatida xalqaro siyosat markaziga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqola MOning geosiyosiy dinamikasini Samuel P. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" va Immanuel Vannershteynning "Jahon tizimlari" nazariyasi kabi fundamental nazariyalari asosida tahlil qiladi, bu orqali mintaqaning murakkab strategik muvozanatiga ko'p qirrali yondashuv taklif etadi.

Maqola mavzusining dolzarbligi Markaziy Osyoning zamonaviy global siyosiy jarayonlarda tobora markaziy o'rin egallayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mintaqa nafaqat yirik davlatlar o'rtasidagi raqobat maydoni, balki iqtisodiy, madaniy va siyosiy hamkorlik platformasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xantingtonning sivilizatsion yondashuvi mintaqadagi madaniy va mafkuraviy omillarning ittifoqlar va mojarolar shakllanishidagi rolini tushunishga yordam bersa, Vannershteynning jahon tizimlari nazariyasi MOni global kapitalistik iqtisodiyotning yarim-periferik hududi sifatida joylashtirib, uning iqtisodiy va siyosiy iyerarxiyalardagi o'rnini ochib beradi. Ushbu nazariyalar birgalikda mintaqaning ichki va tashqi dinamikasini, shu jumladan, uning global tizimdagi o'ziga xos rolini tahlil qilish uchun mustahkam asos yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Ushbu maqola Markaziy Osiyo geosiyosatini Samuel Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nazariyasi va Immanuel Vannershteynning "Jahon tizimlari" nazariyasi asosida tahlil qiladi. Maqola yozish davomida qiyosiy siyosiy

tahlil yondashuvi qo'llanildi, bunda 1991-yildan hozirgi kungacha bo'lgan MO geosiyosati yuqorida qayd etilgan ikki nazariya asosida tahlil qilindi.

MUHOKAMA:

Samuel P. Xantingtonning 1993-yilda "Foreign Affairs" jurnalida chop etilgan mashhur "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" maqolasi geosiyosiy tahlilni tubdan o'zgartirgan paradigma sifatida tarixda o'z o'rnini egalladi. Unga ko'ra, Sovuq urushdan keyingi davrda global mojarolar va raqobatning asosiy omili ideologik yoki iqtisodiy farqlardan emas, balki madaniy va sivilizatsion tafovutlardan kelib chiqadi. Xantington ta'kidlashicha, umumiylar, din va qadriyatlarga ega bo'lgan keng madaniy birliklar — sivilizatsiyalar o'rtasidagi farqlar xalqaro munosabatlardagi asosiy to'qnashuv chiziqlariga aylanadi. Ushbu yondashuv geosiyosiy strategiyalar, ittifoqlar shakllanishi va mojarolar dinamikasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, ammo global siyosatga haddan tashqari reduktiv yondashuv sifatida tanqidga ham uchradi. Bu ta'sir global ittifoqlarning qayta shakllanishida, identitet asosidagi mojarolarning kuchayishida, "ikki o't orasida qolgan davlatlar"ning duch kelayotgan qiyinchiliklarida va global boshqaruvning sivilizatsiyalararo tangliklarni boshqarishdagi yangi rolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xantington yetti yoki sakkiz asosiy sivilizatsiyani ajratadi: G'arbiy, Islom, Konfutsiylik, Hindu, Slavyan-Pravoslav, Lotin Amerikalik, Yapon va ehtimoliy Afrika sivilizatsiyalari. Ularning o'zaro munosabatlari kelajakdag'i global siyosatga ta'sir etadi [1]. Sovuq urush davridagi asosan G'arb doirasida bo'lgan kommunizm va liberal demokratiya o'rtasidagi ideologik to'qnashuvlardan farqli o'laroq, yangi davr chuqur ildiz otgan madaniy tafovutlar asosida yuzaga keladigan mojarolar davri bo'ladi. Bu farqlar din, tarix va an'analarga tayanib, siyosiy yoki iqtisodiy nizolarga qaraganda ancha qat'iy va o'zgarishi qiyin bo'lganligi sababli, ular uzoq muddatli va zo'ravon mojarolarga olib kelishga moyildir. Geosiyosiy jihatdan, bu ittifoqlarning sivilizatsiyalar asosida qayta shakllanishiga olib keldi. Masalan, Eron, Pokiston va Turkiyani birlashtiruvchi Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti G'arb institutlaridan — xususan Yevropa hamjamiyatidan chetlatilganlik natijasida shakllangan islomiy identitet asosidagi ittifoqlarning kuchayishini ko'rsatadi. Shuningdek, Xitoy, Gonkong, Tayvan va xorijdagi xitoy diasporasi o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya ham madaniy umumiylig G'arb iqtisodiy ustunligiga qarshi turg'un mintaqaviy bloklar shakllantirishini tasdiqlaydi. Xantingtonning "G'arb va boshqalar" g'oyasi uning konsepsiyasining markaziy nuqtasi bo'lib, geosiyosiy oqibatlarga ega. G'arbning individualizm, liberalizm, inson huquqlari va demokratiya kabi qadriyatlarni butun dunyoga universal me'yor sifatida singdirishga urinishlari ko'pincha boshqa sivilizatsiyalarning madaniy asoslari bilan to'qnash keladi. Masalan, islom jamiyatlarida diniy qonun va jamoaviylik individual huquqlardan ustun qo'yilishi G'arb tomonidan qo'llab-quvvatlangan demokratik islohotlarga qarshilik tug'diradi. Arab bahori dastlab demokratiya sari qadam sifatida qaralgan bo'lsa-da, unda islomiy harakatlar yetakchi kuchga aylangani G'arbning Yaqin Sharqdagi tashqi siyosatini nafaqat murakkablashtirdi balki strategiyalarini qayta shakllantirishga majbur qildi. Ushbu madaniy tafovut G'arbni o'z harbiy va iqtisodiy ustunligini madaniy diplomatiya bilan muvozanatlashga majbur qilmoqda, "inson huquqlari imperializmi" haqidagi

qarashlarni yumshatishga intilmoqda. Shu bilan birga, Konfutsiylik va Islom sivilizatsiyalari G'arblashmasdan zamonaviylashish yo'lini tanlab, o'z harbiy va iqtisodiy qudratini mustahkamamoqda. Xitoyning uzoq masofali raketalarini rivojlantirish va harbiy kuchni eksport qilish salohiyatini oshirishi Janubiy Xitoy dengizi va boshqa hududlardagi geosiyosiy tanglikni kuchaytirmoqda. Xantington geosiyosat lug'atga "ikki o't orasida qolgan davlatlar" degan tushunchani kiritadi, bu esa sivilizatsiyaviy identitetlar o'rtasida ikkilanayotgan mamlakatlardagi siyosiy beqarorlikni ohib beradi. Turkiya, Meksika va Rossiya G'arb bilan yaqinlashish va o'zining an'anaviy, G'arbiy bo'lмаган identitetliklari o'rtasida muvozanat izlamoqda. Bu holatlar ichki identitet inqirozlari davlatlarni beqarorlashtirib, kengroq geosiyosiy mojarolarga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. "Qarindosh davlatlar sindromi" ham sivilizatsiyalar to'qnashuvi ta'sirini kuchaytiradi. Bu holatda davlatlar va guruhlar mojarolar davrida o'z sivilizatsion ittifoqchilarini qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Fors ko'rfazi urushi davrida G'arb boshchiligidagi koalitsiyaga qarshi Iroqqa ko'plab arab davlatlari hamdardlik bildirgan, bu G'arb-Islom to'qnashuvi sifatida talqin qilingan. Bosniya mojarosida esa islomiy davlatlar bosniyalik musulmonlarga yordam bergen bo'lsa, G'arb kuchlari Xorvatiya va Sloveniya tomonini olgan, Rossiya esa pravoslav serblarni qo'llab-quvvatlagan. Bu sivilizatsiyaviy "sodiqlik" xalqaro koalitsiyalarni shakllantirishni qiyinlashtiradi, chunki madaniyatga asoslangan "sadoqat" ko'pincha strategik yoki ideologik manfaatlardan ustun bo'ladi. Ayniqsa Islom va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi tarixiy raqobat "qonli chegaralar"ni yuzaga keltirib, mojarolar xavfini oshiradi. Shunga qaramay, Xantington g'oyasi madaniy determinizmda ayblanadi. Chunki ko'plab mojarolar, ayniqsa resurslar yoki hududlar ustidagi kurashlar madaniy emas, balki siyosiy yoki iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, kiberxavf-xatarlar kabi global muammolar esa sivilizatsiyalararo hamkorlikni zarur etadi va to'qnashuv muqarrarligini shubha ostiga qo'yadi. Islom doirasidagi sunniy-shi'a ziddiyatlari kabi sivilizatsiya ichidagi mojarolar global siyosatning murakkab tabiatini namoyon etadi [2].

Immanuel Vannershteyn tomonidan ilgari surilgan "Jahon tizimlari" nazariyasi geosiyosiy tahlilni qayta talqin qiluvchi makrosotsiologik yondashuv bo'lib, kapitalistik jahon iqtisodiyotini yagona ijtimoiy tizim sifatida ko'radi. Bu nazariya dunyonи "yadro" (core), "yarim-periferik" (semi-periphery) va "periferik" (periphery) hududlarga ajratib, global iqtisodiy tuzilmalar qanday qilib tengsizlikni davom ettirishi, davlatlararo munosabatlarga shakl berishi va kuch muvozanatiga ta'sir qilishi mumkinligini ohib beradi. Uning geosiyosatga ta'siri chuqur bo'lib, global tengsizliklarning barqarorligi, ittifoqlarning qayta shakllanishi, periferik davlatlar rivojlanishidagi to'siqlar va global boshqaruvga tahdidlar kabi masalalarda yangi tushunchalarni taqdim etadi hamda an'anaviy milliy davlat markazidagi tahlillarni shubha ostiga oladi. Vannershteynning nazariyasiga ko'ra, zamonaviy jahon tizimi XVI asrda paydo bo'lgan kapitalistik jahon iqtisodiyotidan iborat bo'lib, bu tizim global mehnat taqsimoti orqali integratsiyalashgan [3]. Yadro hududlar – tarixda Shimoliy-G'arbiy Yevropa va bugungi kunda AQSh ilg'or texnologiyalar va kuchli davlat institutlari orqali mehnatga asoslangan

periferik hududlardan, masalan Lotin Amerikasi yoki Afrikaning ayrim qismlaridan ortiqcha qiymatni tortib oladi. Yarim-periferik davlatlar, masalan Braziliya yoki Hindiston yadro va periferik xususiyatlarni uyg‘unlashtirib, oraliq rolni bajaradi. Bu strukturaviy iyerarxiya geosiyosiy strategiyalarni shakllantiradi: yadro davlatlar iqtisodiy ustunlik va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, Jahon banki kabi institutlar orqali hukmronlikni saqlaydi, bu esa periferik davlatlarning suverenitetini cheklab, ularning tashqi siyosatiga ta’sir qiladi va yadro davlatlarga nisbatan norozilikni kuchaytiradi. Geosiyosiy jihatdan bu nazariya global tengsizlikni ziddiyatlar va hamkorlikning asosiy omili sifatida ko‘rsatadi. Xomashyo eksportiga tayanuvchi periferik davlatlar mustaqil rivojlanish uchun strukturaviy to‘siqlarga duch keladi va bu holat yadro davlatlar bilan ziddiyatlarga sabab bo‘ladi. Masalan tarixan periferik bo‘lgan Lotin Amerikasi davlatlari “yadro” iqtisodiyotlari bilan tengsiz savdo munosabatlariga qarshi chiqib, Mercosur kabi mintaqaviy ittifoqlar orqali integratsiyalashishga intilmoqda. Afrikadagi ko‘plab davlatlar sanoatlashtirishda tizimning ichki cheklovleri sababli qiyinchilikka duch kelib, Afrika qit’alararo erkin savdo hududi orqali ichki savdoni kuchaytirishga urinmoqda. Bu kabi strategiyalar yadro-periferik munosabatlariga nisbatan qarshilikning geosiyosiy ifodasidir. Yarim-periferik davlatlar geosiyosatda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki ular tizim ichidagi o‘rta mavqeidan foydalanib strategik harakatlar qiladi. Masalan Xitoy va Hindiston periferikdan yarim-periferik yoki hattoki yadro maqomiga o‘tayotib, iqtisodiy o‘sish va strategik ittifoqlar orqali G‘arbiy ustunlikka qarshi chiqmoqda. BRICS ittifoqi bunga misol bo‘lib, jahon davlatlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirib, yadro hukmronligini muvozanatlashtirmoqda. Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi esa periferik hududlarni o‘z iqtisodiy orbitasiga kiritish orqali global savdo tarmoqlarini o‘zgartirib, G‘arb yetakchiligidagi tuzumga qarshi yangi kuch markazini shakllantirmoqda. Bu holat yarim-periferik davlatlarning tashabbuskorligini va kuch muvozanatidagi o‘zgarishni ko‘rsatadi. Vannershteyn milliy davlat emas, balki jahon tizimini tahlil birligi sifatida tanlab, global kapitalizm davlatlarning harakat imkoniyatlarini qanday cheklashini ko‘rsatadi. Yadro davlatlarning periferik hududlarga hukmronligi bo‘lgan imperializm tarixiy mustamlakachilik va bugungi resurslar yoki bozorlar uchun aralashuvlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan AQShning Yaqin Sharqdagi aralashuvlari bunga misoldir. Gegemoniya esa yadro davlatning vaqtinchalik hukmronligi bo‘lib, u tizimni barqarorlashtiradi, lekin sinfiy kurashlar va texnologik tarqalish tufayli barqaror bo‘lolmaydi. Masalan AQShning Ikkinchisi jahon urushidan keyingi hukmronligi bugun Xitoyning yuksalishi bilan zaiflashmoqda. Bu esa savdo, texnologiya va mintaqaviy ta’sir uchun kurashga sabab bo‘lmoqda, masalan AQSh-Xitoy savdo urushi yoki 5G infratuzilmasi ustidagi raqobat bunga misoldir. Bu tangliklar tizimdagi davomiy inqirozlar va kuchlarning qayta taqsimlanishini tasdiqlaydi. Nazariya global sinfiy kurashlar va iqtisodiy sikllarga urg‘u berib, zamонави geosiyosiy beqarorlikni tahlil qilishda ham foydalidir. Vannershteyn kapitalistik jahon tizimidagi strukturaviy inqiroz, ehtimoliy sotsialistik jahon-hukumatining shakllanishi haqidagi qarashlarini ilgari suradi. Savdo urushlari, populistik harakatlar va adolatli global savdoga bo‘lgan talablar ushbu nazariyaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Periferik hududlardagi

norozilik, masalan Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining tejamkorlik siyosatlariga qarshi namoyishlar va yarim-periferik davlatlarning ambitionsiyalari (Hindistonning BMT Xavfsizlik Kengashi a’zoligiga da’vosi) tizimdagi keskinliklarni aks ettiradi. Ammo tanqidchilar nazariyaning haddan tashqari iqtisodiy determinizmga asoslanganini, Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasida ko‘rsatilganidek, madaniy omillar yoki iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar kabi iqtisodiy bo‘lmagan global tahdidlarni e’tibordan chetda qoldirganini qayd etishadi. Jahon tizimi nazariyası global boshqaruv tushunchalariga ham yangi yondashuv olib kiradi. Yadro davlatlarning BMT Xavfsizlik Kengashi va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasidagi ustunligi tobora ko‘proq yarim-periferik davlatlar tomonidan savol ostiga olinmoqda. Masalan Osiyoda infratuzilmalarni rivojlantirishga qaratilgan investitsion banklar kabi muqobil institutlarning paydo bo‘lishi G‘arb markazidagi boshqaruvga qarshi turg‘un tuzilmalarni yaratishga urinishdir. Periferik davlatlar bu institutlar bilan muomala qilayotganda, ko‘pincha bo‘ysunish bilan qarshilik o‘rtasida muvozanat izlaydi [4].

NATIJALAR:

Markaziy Osiyoning geosiyosiy manzarasi siyosiy ittifoqlar, tashqi aralashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o‘zaro ta’sirida shakllangan, bunda Samuel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” va Immanuel Vallersteynning “Jahon tizimlari” nazariyasini taqqoslash uchun sermazmun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasiga ko‘ra, global mojarolar madaniy va sivilizatsion chegara chizig‘lari bo‘ylab yuzaga keladi; Markaziy Osiyo esa Islom, Slavyan-pravoslav va Konfutsiy sivilizatsiyalari kesishgan hudud sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv madaniy identitetlarni ittifoqlar va qarama-qarshiliklarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rsatadi. Misol uchun, Rossianing MODagi ayniqsa, Qozog‘istonidagi rus ozchiligi orqali slavyan-pravoslav rishtalari va Sovet o‘tmishi asosida ta’sirini saqlab qolishi yoki MDH, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti doirasidagi hamkorlik shular jumlasidandir. Biroq nazariya hududdagi manfaatlarga asoslangan pragmatik ittifoqlarni tushuntirib bera olmaydi. Asosan musulmon aholiga ega bo‘lgan MO davlatlari Konfutsiy madaniyatidan ilhom olgan Xitoy bilan iqtisodiy manfaatlar evaziga yaqin aloqalarni kuchaytirgan, bu Xitoy tashabbusi bilan tashkil etilgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va “Bir kamar, bir yo‘l” loyihasi orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, AQShning 2001-yil 11-sentabrdan keyingi harbiy ishtiroklari madaniy qardoshlik emas, balki geostrategik terrorizmga qarshi kurash manfaatlariga tayanadi. Xantington nazariyası ijtimoiy-iqtisodiy asimetriya, milliy manfaatlar va iqtisodiy qaramlikni tushuntirib bera olmaydi.

Vallersteynning “Jahon tizimlari” nazariyası global aloqalarni kapitalistik jahon iqtisodiyoti doirasida yadro, yarim-periferik va periferik hududlar o‘rtasidagi iyerarxik tuzilma orqali tushuntiradi. MO asosan periferik maqomga ega bo‘lib xomashyo eksportiga, yadro (AQSh, Xitoy) hamda yarim-periferik (Rossiya) kuchlar investitsiyalari va bozorlariga tayanadi. Bu yondashuv siyosiy ittifoqlarni tushuntirishda muvaffaqiyatlidir: Qozog‘istonning “ko‘p vektorli tashqi siyosati” Rossiya (Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi), Xitoy (“Bir kamar, bir yo‘l”

investitsiyalari) va AQSh (energetika hamkorligi) bilan aloqalarni muvozanatlash orqali yarim-periferik maqom sari intilmoqda. Vannershteynning tengsiz almashinuv haqidagi tushunchasi Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi orqali mintaqani o‘z iqtisodiy orbitasiga tortishi, lekin bu bilan qarz qaramligiga sabab bo‘layotgan holatlarni yaxshi tushuntiradi. AQSh esa C5+1 kabi tashabbuslar orqali Xitoy va Rossiya ta’siriga qarshi turish uchun iqtisodiy yordam ko‘rsatmoqda. Yevropa Ittifoqi esa MO davlatlariga yangi hamkorlik imkoniyatlarini taqdim qilmoqda. Nazariya ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni ham ochib beradi – mintaqa resurslarga boy bo‘lsa-da, sanoatlashtirishdagi strukturaviy to‘siqlar uni periferik maqomda ushlab qolmoqda. Yaqin o‘tmishdagi geosiyosiy o‘zgarishlar Vannershteyn yondashuvining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi Markaziy Osiyonni muhim logistik “tugun”ga aylantirdi, Qozog‘istonidagi Xorgos Gateway loyihasi savdoni faollashtirsa-da, Xitoy bozoriga qaramlikni kuchaytirmoqda. Rossiya Ukraina bilan urushi tufayli zaiflashgan bo‘lsa-da, energiya eksporti va xavfsizlik sohasidagi ta’siri (KXShT orqali) hanuz mavjud. AQSh esa 2019-2025 yillardagi MO strategiyasi orqali iqtisodiy diversifikatsiyani qo‘llab-quvvatlamoqda, biroq infratuzilma bo‘yicha Xitoy bilan raqobat qila olmayapti. Yevropa Ittifoqi esa yuqoridagi kuchlarni muvozanatlashda mintaqa davlatlariga qo‘srimcha kuch bahsh etmoqda. Mintaqa davlatlari bu ta’sirlarga strategik javob qaytarmoqda: Qozog‘iston ortiqcha qaramlikdan saqlanish uchun hamkorlarini diversifikatsiya qilmoqda, O‘zbekiston G‘arb davlatlar investitsiyalarini jalg etish uchun islohotlar o‘tkazmoqda, Turkmaniston esa ehtiyyotkor neytrallikni saqlamoqda. Bularning barchasi Vannershteyn nazariyasidagi periferik davlatlarning strukturaviy cheklovlar doirasida agentlik namoyon qilayotganini ko‘rsatadi. Xantington nazariyasi ayrim madaniy omillarni tushuntirishda yordam beradi, masalan MO davlatlarining Turkiya bilan Turkiy davlatlar tashkilotidagi hamkorligi, musulmon mamlakatlar bilan Islom Hamkorlik Tashkiloti doirasida, Ko‘rfaz Arab davlatlari bilan munosabatlarini ochiqlaydi ammo bu mintaqadagi manfaatlarga asoslangan ittifoqlar bilan tafovutlarni ko‘rsatadi. ShHT, MDH va boshqalar Xantington bashorat qilgan sivilizatsiyalar to‘qnashuvi o‘rniga iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlari ustun kelayotganini bildiradi. AQShning intervensiyalari va siyosiy munosabatlari ham madaniy yaqinlikka emas, geostrategik manfaatlarga tayanadi. Vannershteyn nazariyasi ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarni, biroq strukturaviy rivojlanish cheklovlarini sababli o‘sishiga qaramay periferik maqomda qolayotgan iqtisodiyotlarni chuqurroq tahlil qiladi. Shunga qaramay Vannershteynning haddan tashqari iqtisodiy deterministik yondashuvi Xantington ko‘rsatgan madaniy omillarni e’tiborsiz qoldiradi. Masalan, Xitoya qarshi jamoatchilik noroziliklari siyosiy qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, ikkala nazariyani sintez qilish yaxshiroq tahlil beradi: Vannershteynning strukturaviy yondashuvi mintaqani ittifoqlar va tashqi aralashuvlarning iqtisodiy va strategik asoslarini tushuntirsa, Xantingtonning madaniy yondashuvi esa jamoatchilik va elita tasavvurlariga ta’sir etuvchi identitetga oid omillarni yoritadi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Vallersteynning jahon tizimlari nazariyasi Markaziy Osiyoning geosiyosatini tushunishda eng dolzarb nazariy asos sifatida ajralib turadi. Bu yondashuv mintaqaning kapitalistik jahon iqtisodiyotidagi periferik rolini, manfaatlarga asoslangan pragmatik ittifoqlarini hamda ijtimoiy-iqtisodiy cheklovlarini va ularni oshib o‘tishga urunishlarni samarali tarzda aks ettiradi. MO davlatlarining Xitoy, Rossiya va AQSh kabi global kuchlar bilan o‘zaro aloqalarini “yadro-periferiya” dinamikasi doirasida ko‘rib, ularning strategik muvozanat saqlash siyosati va iqtisodiy qaramliklarini, ularni hal qilishga bo‘lgan pragmatik siyosatlarni izohlaydi. Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasi esa mintaqaning ShHT va Yevropa Ittifoqi bilan yaqin munosabatlari misolida namoyon bo‘layotgan iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini sivilizatsion tafovutlardan ustun qo‘yan ittifoqlarini to‘liq tushuntira olmaydi. Garchi Vallersteyn yondashuvi iqtisodiyotga ko‘proq urg‘u bersa-da, u mintaqaning geosiyosiy haqiqatlarini chuqurroq tahlil etishga imkon beradi. Vallersteynning iqtisodiy yondashuvini Xantingtonning madaniy qarashlari bilan birlashtirgan holatda, Markaziy Osiyoning kelajagini belgilovchi strukturaviy va identitetga asoslangan omillarni yanada mukammal tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Huntington, S. P. (1993). The Clash of Civilizations? Foreign Affairs, 72(3), pp.22–49.
2. Huntington, S. P. (2011). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster, p.368.
3. Wallerstein, I. (2004). World-Systems Analysis: An Introduction. Duke University Press, p.128.
4. Frank Jacob. (2023). Wallerstein 2.0: Thinking and Applying World-Systems Theory in the 21st Century (Sociology). Transcript publishing, p.180.

ВЛИЯНИЕ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫХ КОРПОРАЦИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ НОВОГО МИРОВОГО ПОРЯДКА НА ПРИМЕРЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Ахмедова Азизабону Бахром кизи

*Магистрант 1-ого курса ТГУВ по направлению «Международные
отношения и современные политические процессы»
azizamirsadikova1@gmail.com*

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние транснациональных корпораций (ТНК) на становление нового мирового порядка. Исследуются и показываются политические, экономические, социальные и культурные аспекты воздействия ТНК на глобальные процессы, а так же их значимость в создании международных стандартов и норм. Весьма важное внимание уделяется политическому и экономическому доминированию ТНК, их лоббистской деятельности, культурному влиянию и вызовам, включая

MUNDARIJA

YALPI MAJLIS

Rixsiyeva G.Sh. Sharqshunos-siyosatshunos va xalqaro munosabatlar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash – bugungi zamон talabi.....	3
Ramakant Dwivedi. Regional cooperation and integration in Central Asia: an Indian perspective.....	5
Rustam Azizi. Центральная Азия в новых реалиях контртеррористической повестки: риски и возможности.....	11
Boboqulov I.I. «Талибан» и перспективы региональной безопасности Центральной Азии	21
Gonca Bayraktar Durgun. Regime transition, path dependency and complexities of democratization in Central Asia.....	24
Baydarov E. Роль Синьцзяна во внутренней и внешней политике Пекина в контексте Китайско-Центральноазиатских отношений	35
Бахадиров М.М. Геополитическое соперничество в области углеводородных ресурсов в Центральной Азии: стратегия Китая, России и США.....	45
Adleta Kumar. Перспективы развития регионального молодёжного сотрудничества в странах Центральной Азии	50
Mustafayev B.R. «Региональная идентичность как фактор развития межгосударственных отношений в Ца»	53
Kasimova N.A. Центральная Азия в условиях современной глобальной трансформации: вызовы и возможности	61
Yuldashev A.E. Россия-Украина уруши фонида Россия Федерациясининг Марказий Осиё давлатлари билан муносабаатларининг айrim жихатлари	67
Sultonova E.S. Янги Ўзбекистон ёшларини ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий жиҳатдан тарбиялаш омиллари	73

I SHO‘BA. XALQARO MUNOSABATLARDA YANGI MARKAZIY OSIYO

Jo‘rayev S.A. Globallashuv va mintaqaviylashuv transformatsiyasi sharoitida “Yangi Markaziy Osiyo”dagi tendensiyalar	80
Adilxo‘jayeva S.M. Глобальная конкуренция за мировое лидерство в сфере искусственного интеллекта	84
Sirojov O. Markaziy Osiyo va Xitoy hamkorligi: imkoniyat va xavotir	91
Olimov A.I. Central Asia and Japan: fundamentals and prospects of strategic partnership development	99
Shazamanov Sh.I. Xitoyning transport diplomatiyasi	110
Nurmetova F. Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘zgarishlar sharoitida	

O‘zbekiston va Janubiy Koreya respublikasi o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik: investitsiyalar, texnologiyalar va barqaror rivojlanish	119
Alimova N.M. Экономическая политика Организации исламского сотрудничества, функции и роль Исламского банка развития	127
Mamadjonov A.B. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuchida “Turkiy dunyo” strategiyasi: imkoniyatlar va muammolar	135
Shukurov A.K. Markaziy Osiyo va Saudiya Arabiston: iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlik istiqbollari	145
Reipnazarov S. Central Asia at the crossroads of global interests: the contemporary dimension of geopolitics	151
Kirkizbayeva K.F. Новая Центральная Азия: история формирование «Умного правительства»	159
Minovvarova M.U. Saudiya Arabiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektori	165
Bekduriyeva G. Markaziy Osiyoda ekologik muammolarni hal qilishda BMTning roli	174
Qobilova G.N. Koreya Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar	180
Saidov J. Koreya Respublikasining Markaziy Osiyodagi “K-Silk Road” strategiyasi	189
Abbasova K.Z. Центральная Азия во внешней политике Саудовской Аравии: основные направления и перспективы	192
Sadikova N., Rustamov A. Центральная Азия и Европейский Союз: от сотрудничества к стратегическому партнерству	200
G‘oziyev R.R., Xudoyqulova M.T. Markaziy Osiyo geosiyosati Xantington va Vallersteyn nazariyalari talqinida	206
Axmedova A.B. Влияние транснациональных корпораций на формирование нового мирового порядка на примере Центральной Азии	213
Chjao Yanszyao Центральная Азия в современных международных отношениях: перспективы стабильности и развития	221
II SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIGIGA CHAQIRIQLAR	
Ubaydullayeva S.F. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik o‘zaro bog‘loqligida osiyoda hamkorlik va ishonch choralari kengashi omili	225
Bo‘ronov S.M. “Tolibon” omilining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ehtimoliy ta’siri	229
Kamiljanov A.A. Дипломатия вокруг Иранской ядерной программы: перспективы и вызовы	238

Mustrova H.I. Хиндистонинг Марказий Осиё давлатлари билан хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорлиги хусусиятлари (Ўзбекистон тисолида)	250
Azizov I.R. Межпарламентское сотрудничество Центральной Азии в контексте глобальной борьбы с терроризмом	257
Xudoyberdiyev A.X. Международный терроризм как угроза безопасности в Центральной Азии	272
Azimov H.Y. Yaqin Sharq mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash sharoitida Turkiya-Isroil munosabatlaridagi o'zgarishlar	279
Kadirova G.Sh. Ближний Восток в мировой geopolитике	286
Yunusov Sh.M. How does geopolitical reasoning in us foreign policy lead to Erroneous Assumptions in the representation of places? a case of Central Asia	295
Nurmetov Sh.M. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta'minlashda O'zbekistonning o'rni	305
Olimov H.B. Markaziy Osiyodagi tinchlikni saqlash borasidagi O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi	313
Saparbayeva S.B. Pokiston-Afg'oniston o'rtasidagi etnik muammolarning Markaziy Osiyoga ta'siri	322
Aliyev J.E. Gibrid va axborot urushlari: zamonaviy strategik tahdidlar ...	327
Mamajonova M. Hilmanddan amudaryogacha: Afg'onistonning mintaqaviy suv muammolari	332
Mahmudov Q. AQSHning Afg'onistondagi dronlar urushi va uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga tahdidi	339
Xojimurodova M. R. Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonaning mintaqaviy xavfsilikni ta'minlashdagi ahamiyati	349
Gayratov F.M. Понятие, классификация и методы распознавания фейков в современном информационном пространстве	360
Qalandarov O'.F. Afg'oniston qochqinlari oqimining Eron va Markaziy Osiyo davlatlarida xavfsizlik hamda ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri	367
Latipova S.A. Hozirgi davrda Markaziy Osiyoning mintaqaviy xavfsizlik muammolari	373
Kamaletdinova K.Sh. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Ближнего Востока	377

III SHO'BA. MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI

Azimov X. Некоторые геополитические аспекты развития международных транспортных коридоров в Центральной Азии	383
Jo'rboyev I. Региональная идентичность Центральной Азии: концептуальные основы и практики формирования	387
Nadjimov F. Madaniy diplomatiya va mintaqaviy integratsiya: Markaziy Osiyoda millatlararo hamjihatlikni shakllantirishda O'zbekiston-	

Qozog‘iston hamkorligi	396
Botirov D.U. Markaziy Osiyo davlatlarida partiyalararo hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari	400
Sultonova E.S., Nizamova M.M. Подходы гендерного равенства государств Центральной Азии в процессах региональной интеграции..	406
Otajonov E.A. Markaziy Osiyo davlatlarida ma’muriy islohotlar va taraqqiyot yo‘lida tizimli yangilanish	415
Sa’dulloyeva S.S. Центральноазитские региональные интеграционные инициативы во временной политике Нового Узбекистана	420
Tursunova D.R. Forming collective identity as the foundation for Central Asian integration	427
Kushayeva N. Центральная Азия в форматах «c5+1» и новые перспективы взаимодействие со странами ссагз	434

IV SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO MINTAQASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Zaripova Z.A. Теории разрешения конфликтов и современная практика урегулирования территориальных споров в Центральной Азии	441
Nikolayeva K.S. О двустороннем сотрудничестве Узбекистана и Китая в области охраны окружающей среды на современном этапе	451
Salimova S.Y. Xususiy bandlik agentliklarining aholini ish bilan ta’minlashdagi roli	456
Normayeva M. Голос женщин в дипломатическом пространстве Центральной Азии: исторические и современные аспекты	460
Olimov A.A. Markaziy Osiyo davlatlarida aholi turmush darajasini yaxshilash hamda sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari	468
Toshboyeva D. Yaponiyaning O‘zbekiston bilan hamkorligi markaziy osiyo barqaror rivojlantirish omili sifatida	474
Maratova X.B. Марказий Осиё минтақасида Ўзбекистоннинг рақамли дипломатияси	482
Islomova Y.I. Zamonaviy dunyoda O‘zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasi	488
Xolmatova G.M. Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishida Xitoyning roli: imkoniyatlar va ehtimoliy tahdidlar	496
Sadikova D. Yoshlar siyosatining global va mintaqaviy kontekstidagi nazariy asoslar: transdissiplinar va institutsional strukturaviy tahlil	502
Jurayev S., Olimova G., Jurayeva K., Cooperation between Uzbekistan and Caspian region states in the transport and transit sector	507
Abdullayev J. Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligini yanada	

rivojlantirish konsepsiysi	516
Usmonova X. Концептуальные основы цур и системные изменения ООН	525
Maksumova K. ШОС как инструмент региональной стабильности и роста в Центральной Азии	532
Naimjonova Z.N. The role and practical significance of theoretical approaches in shaping external migration policy	538
Tagayeva F.B. Зелёная политика Организации Тюркских Государств: стратегические ориентиры и вклад в устойчивое развитие региона	541
Usmonova X. Многосторонние механизмы мониторинга, оценки и подотчетности реализации рамок цур.	551
Dusbekova X. Tojikiston yoshlari tashkilotlari va ularning faoliyat	558

**ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA MARKAZIY
OSIYO: BARQARORLIK VA TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
(Toshkent, 2025-yil 17-may)

**CENTRAL ASIA IN MODERN INTERNATIONAL RELATIONS:
PROSPECTS FOR SUSTAINABILITY AND DEVELOPMENT"**
International scientific-practical conference on
(May 17, 2025)

To‘plamda joy olgan maqola va tezislarda keltirilgan ma’lumotlarga
mualliflar mas’uldirlar.

Bosishga ruxsat etildi: 16.05.2025-yil
Bichimi 60x84 ^{1/8}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i 70,75. Nashr.h.t. 51.7.
Adadi 60. Buyurtma № 16-05

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.